
JADIDLARNING TARAQQIYOT YO‘LIDAGI FAOLIYATLARI HAQIDA

I.M. Xaydarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Abduvaliyeva Laylo

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

E-mail: labduvaliyeva62@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan jadidchilik harakatining maorif tizimidagi islohotlari hamda ularning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi strategik ahamiyati tadqiq etiladi. Maqolada yangi usul maktablarining tashkil etilishi shunchaki ta’limiy yangilanish emas, balki chor Rossiyasining ruslashtirish va ma’naviy qaramlik siyosatiga qarshi qaratilgan intellektual isyon ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, ona tilining nufuzini tiklash, xotin-qizlar ta’limini yo‘lga qo‘yish hamda “Ko‘mak” tashkiloti orqali milliy kadrlarni xorijda o‘qitish harakatlarining milliy mustaqillik g‘oyasini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, maorif islohoti, mustamlakachilikka qarshi kurash, Turkiston, yangi usul maktablari, Munavvarqori Abdurashidxonov, “Ko‘mak” tashkiloti, milliy uyg‘onish, xotin-qizlar ta’limi, intellektual isyon.*

ACTIVITIES OF THE JADIDS ON THE PATH TO DEVELOPMENT

Abstract. *This article examines the educational reforms of the Jadid movement in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries and their strategic importance in the struggle against colonialism. The study argues that the establishment of new-method schools was not merely an educational innovation but an intellectual rebellion against the Russification and spiritual dependency policies of Tsarist Russia. Furthermore, the article analyzes the role of restoring the status of the mother tongue, promoting women's education, and the efforts of the "Komak" organization to train national personnel abroad in shaping the ideology of national independence.*

Keywords: *Jadidism, educational reform, struggle against colonialism, Turkestan, new-method schools, Munawwar Qari Abdurashidkhanov, "Komak" organization, national awakening, women's education, intellectual rebellion.*

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ НА ПУТИ К ПРОГРЕССУ

Аннотация. В данной статье исследуются образовательные реформы джадидского движения в Туркестане в конце XIX – начале XX веков и их стратегическое значение в борьбе против колониализма. В статье обосновывается, что создание новометодных школ было не просто новшеством в сфере образования, а интеллектуальным восстанием против политики русификации и духовного порабощения царской России. Анализируется роль восстановления статуса родного языка, продвижения женского образования и деятельности организации «Кумак» по обучению национальных кадров за рубежом в формировании идей национальной независимости и самосознания.

Ключевые слова: *джадидизм, реформа образования, борьба с колониализмом, Туркестан, новометодные школы, Мунаввар Кары Абдурашидханов, организация “Кумак”, национальное возрождение, женское образование, интеллектуальное восстание.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida jadidchilik harakati millatni jaholat botqog‘idan qutqarishga qaratilgan eng kuchli kuch sifatida maydonga chiqdi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati o‘lkani nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy jihatdan ham qaramlikda saqlashga intilar edi. Bunday murakkab sharoitda ilg‘or fikrli ziyolilar — jadidlar milliy mustaqillikka erishishning yagona yo‘li xalqning dunyoqarashini o‘zgartirish va maorif tizimini isloh qilish ekanligini anglab yetdilar.

Jadid maorifi shunchaki yangi usuldagi maktablar tarmog‘i emas, balki mustamlakachilik tuzumiga qarshi qaratilgan o‘ziga xos intellektual isyon edi. Chunki yangi usul maktablarida beriladigan zamonaviy bilimlar va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari chorizmning ruslashtirish strategiyasiga mutlaqo zid edi. Mustamlaka ma’murlari ushbu maktablarni o‘z imperiya manfaatlari uchun jiddiy xavf deb bildilar va ularga qarshi barcha ma’muriy hamda mafkuraviy tazyiqlarni ishga soldilar.

Adabiyotlar sharhi. H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovning “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” nomli asarida Turkiston jadidlarining maorifdagi mustamlakachilikka qarshi kurashi yangi usul maktablarining tashkil topishi

hamda jadidlarning ilm fandagi islohatlari chuqur tahlil qilingan. K. Nomozovning “Jadidchilik: muammolar, islohotlar va qarashlar” nomli asarida esa jadidlarning oldida turgan muammolar, ular ilgari surgan g‘oya va qarashlar hamda har jabhada amalga oshirgan islohatlari tizimli va tushunarli bayon etilgan. R. Sharipovning “Turkiston jadidchilik harakati tarixidan” nomli asarida Buxoro, Xiva jadidchilik harakati ularning asarlari hamda yaratgan darsliklari ularda milliy o‘zlik hamda erkinlik haqidagi masalalar hamda jadidchilikning siyosiy hayotga ta’siri haqida keng ma’lumotlar berib o‘tilgan. Mas’ul muharrir: D.A. Alimova. “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik uchun kurash” ushbu maqolalar to‘plamida ham jadidchilikning maorif orqali Chor Rossiyasiga nisbatan olib borgan faol harakatlari hamda jadidlarning har sohadagi faoliyati keng yoritilgan. B. Irzayevning “Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti” ushbu asari orqali jadidlar qoloqlik hamda tutqunlikdan maorif hamda zamonaviy bilimlar orqali rivojlanish mumkin degan g‘oyaning amaliy tatbig‘i sifatida “Ko‘mak tashkiloti” deb nomlangan tashkilot tuzib, yoshlarni yana kuchli va bilimli qilish uchun ularga chet elda o‘qib, zamonga hamnafas bo‘lishlari uchun qilgan harakatlari hamda ishtiyoqlari tahlil qilinib ochib berilgan.

Natijalar. Turkiston jamiyatidagi mavjud madaniy-ma’rifiy qoloqlikdan chiqishning yagona yo‘li sifatida o‘qitishning yangi tartibdagi usuli o‘lka hayotiga kirib kela boshladi. XIX asr oxirida joriy etila boshlagan yangi usuldagi maktablar chor hokimiyati va mahalliy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchrab, birin-ketin yopila boshladi. Jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan jadid maktablariga muxolifatchi kuchlar qanchalik qarshilik ko‘rsatmasinlar, XX asr boshlariga kelib, bu maktablarning soni shunchalik tez ko‘payib ketdiki, chor ma’murlari birini yopsa, ikkitasi ochilar, mahalliy reaksiyon ulamolarning qarshiligi ham ko‘p hollarda endi avvalgiday ish bermay qoldi.²⁹

Ismoil Gaspirali 1884-yil “usuli jadid” maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasidagi g‘oyalarini “Tarjimon” gazetasida e’lon qila boshlaydi. Uning fikricha, maorif tizimi oldida quyidagi vazifalarni hal etish muammosi turar edi:

- maktab madrasadan ajralib chiqishi kerak;
- boshlang‘ich sinflar uchun alohida o‘qituvchilar tayyorlanishi lozim;
- o‘qituvchi “sadaqa” emas, oylik maosh bilan ta’minlanishi zarur;
- o‘qish va yozish eski “hijjalama” yo‘li bilan emas, yangi “Alifbo” kitoblari vositasida o‘rgatilishi maqsadga muvofiq;
- faqatgina o‘qish emas, shu bilan birga yozishga ham ahamiyat berilishi shart;
- qizlar uchun ham alohida maktablar ochilib, u yerda o‘qish va yozishga alohida e’tibor berilishi kerak;

²⁹ Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohotlar va qarashlar. – Toshkent: Turon-iqbol, 2010. – B. 31.

- o‘qitish ma’lum bir dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi kerak.

“Usuli jadid” harakati vaqt o‘tishi bilan o‘z mevalarini bera boshlaydi. 1904 - yilga kelib Rossiyaning o‘zida besh mingga yaqin “usuli jadid” maktablari ochiladi. So‘ngra bu harakat Turkistonga ham yoyila boshlaydi³⁰. Munavvarqori so‘nggi uch asr davomida vujudga kelgan, rus istibdodi tufayli yanada chuqurlashgan milliy jaholat va g‘aflatni yo‘qotish uchun, birinchi navbatda, maorifni qayta tashkil etishga kirishdi. U 1901 -1904-yillarda qrimlik do‘sti Rais Kishod yordamida Toshkentda, o‘z hovlisida “usuli savtiya” (tovush usuli) maktabini ochadi. Bunday maktablar tarmog‘ini keng yoyishda qaldirg‘och bo‘lgan uning “Namuna” maktabi shunday katta shuhrat qozondiki, mustamlaka ma’muriyati ham bundan tashvishga tushdi.

Chunki yangi usul maktablari ruslashtirish siyosatining tomiriga bolta urardi. Imperiya Ichki ishlar vazirligining 1900-yil 31-dekabrda Toshkentdagi maxfiy sensor N.P. Ostroumovga yuborgan ko‘rsatmasidan ana shunday tahlika seziladi. Politsiya departamenti Turkistonda mahalliy xalqlar o‘rtasida yangi usuldagi maktablar ochish harakati boshlanib, matbuotda bu haqda turli maqolalar e‘lon qilinayotgani sababli, maktab ochish va dars berishda qatnashayotgan barcha shaxslar haqida mukammal material to‘plab, zudlik bilan yuborish vazifasini Ostroumov zimmasiga yuklagan edi. Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy o‘zgarishlar kiritishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida aynan XX asr boshida tarix sahnasiga chiqa boshladilar³¹.

A.V. Pyaskovskiyning ma’lumot berishicha, 1895-1901-yillarda Turkistonda 30 ta jadid maktabi bo‘lib, Toshkentda to‘rtta usuli jadid maktabi tashkil topgan bo‘lsa, ... 1917-yil fevral voqealari arafasida Turkistonda 92 jadid usuliga asoslangan yangi turdagi maktablar qayd qilingan edi³².

Jadidlar maktablarda darslarning ona tilida o‘qitilishiga alohida e‘tibor berishgan. Ona tilida dars o‘tish o‘quvchilarda darsni o‘zlashtirishni osonlashtirish bilan birga ularda milliy ma’naviyatni saqlab qolishini nazarda tutgan jadidlar ta’lim tizimida ona tilini chuqurroq o‘rgatish, ona tilidagi darslarni ko‘paytirish, boshqacha aytganda, o‘quv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, oxir-oqibatda esa bu yoshlarda milliy-ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi, deb hisoblaganlar. Abdulla Avloniy tili bilan aytganda esa, “Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmak” edi.

³⁰ Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – B. 31.

³¹ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 260 b.

³² Pyaskovskiy A. V. Turkistonda 1905–1907 yillar inqilobi. – M.: SSSR FA nashriyoti, 1958. – B. 99–100

“Keraklicha din ilmini o‘qish hammaga farz bo‘lganidek, o‘z hukumati, Vatanini va millatni saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o‘qib bilishlik ham farzdir”, – deb yozgan edi keyinchalik A. Sog‘uniy o‘zining “Turkiston qayg‘usi” asarida. Geografiya, tarix, adabiyot, hisob, handasa kabi zamonaviy ta‘lim beruvchi fanlar qatori dars rejalaridan diniy fanlar ham o‘rin egallagan, ya‘ni bu maktablarda diniy va dunyoviy fanlar hamohang tarzda o‘qitilgan. Chunki jadidlarning butun mafkurasi islom g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, ular islomga insonni komillikka eltuvchi ta‘limot sifatida qaradilar va shu ta‘limot asosida xalqni iy mon-e‘tiqodga, halol va pok amallarga chorladilar. Jadidlar o‘qitishda garchi rus-yevropa ta‘lim tizimi tajribalariga suyansalar-da, o‘qitiladigan fanlar qatoridan diniy fanlarni ham o‘qitish orqali yoshlarda milliy-diniy tarbiyani shakllantirishni ko‘zda tutdilar. “Usuli jadid” maktablarining eng muhim jihati ham shundadir.³³

Buxoro jadidlari 1900-yil boshida amirdan yangi usuldagi maktablar ochishga ruxsat olishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo bunday yangi usul maktablarining ochilishi Rossiya manfaatlariga zid edi. Shu bois Rossiyaning amirga bo‘lgan tahdidi ortib ketdi va u jadidlarga tazyiq o‘tkazishga majbur bo‘ldi.

Butun O‘rta Osiyo bo‘ylab ochilgan yangi usul maktablariga qarshi Rossiya mustamlakachilari o‘t ochadilar, bu maktablarni “islomga qarshi”, “g‘ayridin maktablari” degan tashviqot yurgizdilar, josuslik idoralarini ishga soldilar. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, bu borada ko‘plab qurbonlar berildi. Rus ma‘murlari bu paytga kelib islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Hatto, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham maxsus farmon bilan man etdi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg‘otdi. Jadidchilik harakati va uning namoyandalarini yoqtirmagan bolsheviklar bu harakatni faqat ma‘rifiy harakat deb baholagan va ularni siyosiy kaltabinlikda ayblab kelgan edilar. Jadidchilik harakatining ulkan arboblari va tashkilotchilaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov 1927-yilda yozgan maqolasida bolsheviklar qo‘ygan bu aybga: “Chor hukumatini yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishi yashirin emas. Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqacha ta‘bir bilan aytganda, do‘konda o‘tirib nasiya yozadurgan xodimlar yetkazsak. Bu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq-bu yoqni mulohaza qilsin”, deya javob yozgan edi.³⁴

Jadidlar nafaqat erkaklarning ilmi bo‘lishiga balki ayollarning ham ilm olishiga alohida e‘tibor qaratdi. Xususan A. Fitrat “Munozara” asarida shu mavzuga alohida to‘xtalib o‘tadi. A. Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun

³³ Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohotlar va qarashlar. - Toshkent: Turon-iqbol, 2010. - 36b.

³⁴ Mas‘ul muharrir: D. A. Alimova. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik uchun kurash (ilmiy maqolalar to‘plami) – Toshkent: Universitet, 1999. – 33 b.

xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini zarur deb biladi.

Turkistondan chetga borib o‘qish uchun 1921-yil boshlarida O‘zbek bilim hay’ati tomonidan bir loyiha tuzilib, boshida student Sayyidalixo‘ja bo‘lgani holda bir necha o‘quvchilarning ro‘yxati olinib hukumatga topshirilgan edi. Bir necha muddat buning ketidan yurib, natijada hukumatimizning moddiy ko‘mak bera olmasligi bilinchilik, bu masala o‘z-o‘zidan to‘xtaldi. Lekin, o‘quvchilarning orasida ko‘tarilgan chetga ketib o‘qish havasi esa bu bilan bitmadi. O‘quvchilardan qaysi bir o‘ziga to‘qroqlari (garchi borliq narsalarini sotib bo‘lsa-da) yana chetga ketmak orzusida bo‘ldilar.

Bularning o‘zaro tashabbusini ko‘rgan O‘zbek bilim hay’ati chetdan tomoshachi bo‘lib tura olmadi. Bo‘lsa-bo‘lmasada umid bilan ishga kirishdi va chetga ketguvchi studentlarning o‘zlaridan bir komissiya tuzib va bunga o‘z a‘zosi bo‘lgan Sayyidalixo‘jani shul komissiyaga boshliq etib, “Ko‘mak” otida bir uyushma tuzdi. Uyushma kecha-kunduz ishlab turli yoqdan gadoylik qilib bo‘lsa-da, bir kishini chetga jo‘nata oldi (bizningcha – Abduvahhob Murodiy)³⁵. Lekin 1922-yilga kelib 30 nafar talaba chet elga yuborildi. Jadidlar bu orqali Turkiston yoshlarni, qoloqlik, tutqunlikdan islohatlar yo‘li bilan zamonaviy bilimlarni egallab rivojlanish sari olib chiqishiga ishonishgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadid maorifi Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning eng qudratli intellektual quroliga aylandi. Jadidlar maktabni shunchaki savod chiqarish maskani emas, balki milliy ozodlik g‘oyalari shakllanadigan dargoh sifatida qayta qurdilar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi usul maktablari, ona tilining ustuvorligi va xotin-qizlar ta’limiga qaratilgan islohotlar chorizmning ruslashtirish strategiyasiga jiddiy zarba berdi. “Ko‘mak” tashkiloti orqali yoshlarning xorijda o‘qitilishi esa millatni ma’naviy qaramlikdan qutqarish va mustaqil davlatchilik uchun kadrlar tayyorlash yo‘lidagi strategik qadam bo‘ldi. Jadid bobolarimizning ma’rifiy merosi bugungi kunda ham Yangi O‘zbekiston poydevorini mustahkamlashda va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 260 b

³⁵ Irzayev B. Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. – B. 5.

3. Nomozova K. Jadidchilik: muammolar, islohotlar va qarashlar. – Toshkent: Turon-iqbol, 2010.
4. Mas’ul muharrir: D. A. Alimova. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik uchun kurash (ilmiy maqolalar to‘plami) – Toshkent: Universitet, 1999.
5. Irzayev B. Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti. – Toshkent: “Toshkent islom univertiteti”, 2016.